



## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA INKLYUZIV MUHITNI YARATISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

*TAFU "Maktabgacha ta'lim yo'nalishi" 3-bosqich talabasi*

*M.B.Rixsitillayeva*

**Аннотация:** Bizga ma'lumki mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanayotgan har bir bola uchun qulay shart sharoit mavjud. Bu imkoniyati cheklangan ya'ni inklyuziv tahsil olayotgan bolalarni ham chetlab o'tmasligi muhimdir. Jamiyat orasida alohida ehtiyojga ega bo'lgan oilalar, imkoniyati cheklangan bolalar va inklyuziv ta'limni samarali amalga oshirishda eng avvalo uzluksiz ta'limning ilk nuqtasi maktabgacha ta'limdan boshladi. Ushbu maqolada aynan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv muhitda tarbiyalanish uchun yaratilgan va yaratilishi kerak bo'lgan qulayliklarni ko'rib chiqamiz.

**Калит so'zlar:** maktabgacha ta'lim tashkiloti, inklyuziv ta'lim, bola, ta'lim – tarbiya, imkoniyati cheklangan bolalar, pedagog.

**Аннотация:** Известно, что в нашей стране на систему образования уделяется внимание на уровне государственной политики. Для каждого ребенка, воспитывающегося в дошкольной образовательной организации, созданы благоприятные условия. Важно, чтобы эти условия не обходили стороной детей с ограниченными возможностями, то есть тех, кто получает инклюзивное образование. В обществе семьи с особыми потребностями, дети с ограниченными возможностями и сама система инклюзивного образования занимают особое место, а эффективная реализация инклюзии начинается, прежде всего, с дошкольного образования — первой ступени непрерывного



образовательного процесса. В данной статье рассматриваются уже созданные и необходимые для создания условия, обеспечивающие воспитание детей в инклюзивной среде в дошкольных образовательных учреждениях.

**Ключевые слова:** дошкольная образовательная организация, инклюзивное образование, ребенок, обучение и воспитание, дети с ограниченными возможностями, педагог.

**Annotation:** It is well known that in our country, special attention is given to the education system at the state policy level. Every child enrolled in a preschool educational institution is provided with favorable conditions. It is important that these opportunities also extend to children with disabilities, that is, those receiving inclusive education. In society, families with special needs, children with disabilities, and the effective implementation of inclusive education hold great importance, and this process begins primarily at the preschool stage — the starting point of continuous education. This article examines the conditions that have been created and those that need to be established to ensure the upbringing of children in an inclusive environment within preschool educational institutions.

**Keywords:** preschool educational institution, inclusive education, child, education and upbringing, children with disabilities, teacher.

### Kirish

Mamlakatimiz o'tgan davr mobaynida o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va



jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash ko'zda tutildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Bu konsepsiyada alohida ta'limga ehtiyoj i bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

inkyuziv ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

inkyuziv ta'limga ehtiyojli bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

inkyuziv ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;

inkyuziv ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar.

2020 — 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Inkyuziv ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar ta'limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi. Konsepsiya



erishilgan natijalar, maqsadli ko‘rsatkichlar va tegishli davrga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda 2022-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alohida “Yo‘l xaritasi” asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilandi. Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshirish, jumladan:

1. 2020 — 2022-yillar davomida: inklyuziv ta’lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtirish; inklyuziv ta’lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta va malakasi oshirish;

2. inklyuziv ta’lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etish;

3. alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o‘rtasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllantirish;

4. alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo‘lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish;

5. inklyuziv ta’lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta’lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilish;

6. 2023 — 2025-yillar davomida: inklyuziv ta’lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida joriy qilish;

7. alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish;

8. inklyuziv ta’limda o‘qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta’lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etish; inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog‘lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko‘rish; o‘quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta’lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari soni optimallashtirish belgilab qo‘yildi.



O'zbekiston ta'lim tizimiga inklyuziv ta'limni kiritish masalalari bilan UNICEF shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir.

Hozirda mamlakatimizda inklyuziv ta'limga yo'naltirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari kun sayin ko'payib va takomillashib bormoqda. Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim alohida ehtiyojli bolalarning meyorda rivojlanayotgan tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya olishi va ilk yoshdan hayotga moslashishini ko'zda tutadigan ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'lim barcha bolalarning ta'lim olishda turli ehtiyojlarga ega shaxslar ekanini etirof etadi. Inklyuziv ta'lim bolani emas, ta'lim mazmunini o'zgartirishni nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim alohida ehtiyojli bolalarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, ta'lim olish va rivojlanish imkonini beradi. Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim bolalarni bir-biridan ajratuvchi to'siqlarni bartaraf etishga, ularning yoshi, jinsi, diniy va ijtimoiy kelib chiqishi, jismoniy va aqliy rivojlanishdan orqada qolishi va iqtisodiy taminlanganlik darajasidan qat'iy nazar, ta'lim jarayoniga to'liq uygunlashtirishga qaratilgan davlat siyosatidir. Imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishning ilk davrlaridanoq jamiyatga bosqichma-bosqich



integrasiyalashuviga erishish uchun o'ziga xos xususiyatlariga mos holda o'qitish va tarbiyalash inklyuziv ta'limning asosiy mohiyati va mazmunini tashkil etadi.

### **Xulosa**

Kelgusida inklyuziv ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy texnologiyalar va maxsus jihozlar bilan ta'minlash, shuningdek, jamiyatda ijobiy ijtimoiy munosabatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir bola — u qanday imkoniyatga ega bo'lishidan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish va baxtli hayot kechirish huquqiga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori PQ-4312 08.05.2019
2. S.M.Raxmonova, M.M.Negmatova Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish // Science and Education. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-limda-inklyuziv-ta-lim-tizimini-rivojlantirish-1> (дата обращения: 11.11.2025).
3. F.B. Umarova. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА ИНКЛЮЗИВ ТА'ЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. SCIENTIFIC PROGRESS. Scientific Journal ISSN: 2181-1601 VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2021
4. D.S.Qaxarova “ Inklyuziv ta'lim texnologiyasi” o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil